

KUZGI BUG'DOY NAVLARINI BARGDAN OZIQLANTIRISH ORQALI XOSIL SIFATIGA TA'SIRI

QMI assistant

Jumayev U.G'.

Абстрактный. *Осенние мягкие местные сорта пшеницы Hazrati Bashir и Яксарт обладают высокой потребностью в микроэлементах и макроэлементах в течение вегетационного периода, при этом недостаток этих элементов влияет на продуктивность пшеницы. В наших опытах при использовании азотных, фосфорных, калийных удобрений в качестве минеральных удобрений и внекорневой подкормке макро и микроудобрениями длина колоса сортов в одном колосе позволяла повысить такие семенные качества, как количество зерен, 1000 зерен. вес и тип зерна.*

Ключевые слова: *Hazrati Bashir, Яксарт, минеральные удобрения, макро и микроудобрения, нормы удобрений, внекорневая подкормка, качество семян, оптимальный период, подвесной метод, клейковина и стекловидность, скорость фотосинтеза, посадка в оптимальный период, норма высева.*

Annotatsiya. *Kuzgi yumshoq mahalliy bug'doyning Farboma va Yaksart navlarini o'suv davri davomida mikroelementlar va makroelementlarga talabi yuqori bo'ladi, shu bilan birga bu elementlarning yetishmasligi bug'doyning mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi. Tajribalarimizda azot, fosfor, kaliy o'g'itlarini kg/ga me'yorda ma'danli o'g'itlar va qo'shimcha bargdan oziqlantirish sifatida makro va mikroo'g'itlar kompleksi preparatlari qo'llanilganda navlarning boshqoq uzunligi, bitta boshqodagi don soni, 1000 ta don vazni va don naturasi kabi urug'lik sifatlarini oshirish imkonini berdi.*

Kalit so'zlar: *Hazrati Bashir, Yaksart, ma'danli o'g'itlar, makro va mikroo'g'itlar, o'g'it me'yorlari, qo'shimcha bargdan oziqlantirish, urug'lik*

sifatlari, maqbul muddat, suspenziya usulida, kleykovina va shishasimonlik, fotosintez jadalligi, maqbul muddatda ekish, ekish me'yorlari.

Kirish. Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishning asosiy shartlaridan biri bo'lib navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda agrotexnik tadbirlarning ishlab chiqilganligi va qo'llanilishi hisoblanadi. Jumladan, bug'doy navlarini to'g'ri joylash, maqbul muddatda ekish, ekish me'yorlari va ekishdan oldin fosforli va kaliyli o'g'itlar bilan oziqlantirish ildizning rivojlanishiga, unib chiqish va keyingi rivojlanish fazalariga o'z samarasini ko'rsatadi.

Bugungi kunda Respublikamiz sug'oriladigan yerlarida g'alla yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda. Sug'oriladigan yerlarga bug'doyning serhosil navlarini ekish va parvarish agrotexnika bo'yicha o'tkazilsa hosildorlikni 60-75 st/ga yetkazish mumkin[2].

Shunday muhim tadbirlardan biri-o'simliklarni maqbul me'yor va usullarda oziqlantirish hisoblanadi. Kuzgi bug'doyni azot va boshqa ozuqa moddalarga bo'lgan talabini qondirish agrotexnologik chora-tadbirlaridan biri barg orqali oziqlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda g'allachilikda mineral o'g'itlarni suspenziya usulida berish kengaymoqda.

Adabiyotlar ma'lumotlariga ko'ra, bunday usulda o'simliklarni qo'shimcha oziqlantirishning bir qancha afzalliklari bor. Jumladan, o'simliklarning bargida xlorofill donachalari ko'payadi, ularning o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshoqli don ekinlarini o'suv davri mobaynida kam miqdorda mikroelementlarga va ko'p miqdorda makroelementlarga talabi yuqori bo'lib, makro va mikro elementlar o'simliklarning fotosintez jadalligini oshirishga, tuproq tarkibidagi oziq moddalarni o'zlashtirishga, kasallik va noqulay ob-havo sharoitlariga chidamliligini oshirish imkonini beradi va o'simlik organlarida zararli moddalar to'planmaydi [4].

O‘simliklarning barg va poya orqali oziqlantirishni o‘rganish bo‘yicha dastlabki tajribalar D.N.Pryanishnikov va uning shogirdlari tomonidan o‘tkazilgan. K.N.Godnov, Y.N.Jarova va boshqalar ma‘lumotlariga ko‘ra Rossiyaning noqoratuproq mintaqasida olib borilgan 30 ta tajribaning 10 tasida kuzgi bug‘doyni azotli o‘g‘itlar bilan boshqalash vaqtida oziqlantirish don hosildorligini 0,8 st/ga, oqsil miqdorini 1,1- 2,5% ga oshirgan. Qolgan variantlarda kleykovina va shishasimonlik oshishi kuzatilgan[7].

Bug‘doyning o‘sishi, rivojlanishi mahsuldorlik ko‘rsatkichlari va urug‘lik sifatlariga ma‘danli ozuqalar bilan birga makro va mikroo‘g‘itlar kompleksi bilan qo‘shimcha oziqlantirishning ta‘sirini o‘rganish maqsadida tajriba ishlari Samarqand viloyati o‘tloq-bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi yumshoq bug‘doyning Farboma va Yaksart navlarida o‘tkazildi.

Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani “Paxtachilik” fermer xo‘jaligida olib borildi. Tajriba maydonining tuproqlari sug‘oriladigan tuproqlar, sizot suvlarining tuproqlari 2,5-3,0 m o‘tloq-bo‘z tuproqlar.

Tajriba ishlarida kuzatish, hisoblash va tahlillar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (O‘zpiri 2007), fenologik kuzatuvlar va biometrik tahlillar qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini sinash Davlat komissiyasining uslubi bo‘yicha va Davlat nav sinash markazi, Respublika Davlat Urug‘ Nazorat markazi tavsiyalari qo‘llanmalari va usullari bo‘yicha o‘tkazildi. Tadqiqot ob‘yekti bo‘lib, kuzgi yumshoq bug‘doyning O‘zbekiston Davlat reestriga kiritilgan Xazrati Bashir va Yaksart navlari xizmat qildi.

Kuzgi yumshoq bug‘doyning urug‘lik paykallarida qo‘llaniladigan agrotexnik va tashkiliy tadbirlar, o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qildi. Ekish oktyabr oyining ikkinchi o‘n kunligida, ekish me‘yori 4,5 mln/ga o‘tkazildi. Fosforli (ammafos) va kaliy (kaliy xlorid) li o‘g‘itlarning yillik me‘yori ekish oldidan yer haydash bilan qo‘lda berildi.

Azotli o‘g‘it me‘yorlari navlarimizning tuplanish va naychalash fazalarida ikkiga bo‘lib berildi. Variantlarimizga qo‘shimcha barg orqali oziqlantirish sifatida mikro va makroelementlarga boy Avalon (NPK20:20:20) preparatidan

2kg/ga 300 l suvda eritilib navlarimizning tuplanish va naychalash fazalarida suspenziya usulida qoʻllanildi. Tajriba bir yarus, 2 qaytariqda, har bir hisobli maydon 50 m² ni tashkil etadi. Tadqiqotlarda oʻgʻit meʼyorlari nazorat (oʻgʻitsiz), N₁₂₀:P₉₀:K₆₀ va N₁₂₀:P₉₀:K₆₀+Avalon kabi variantlarda oʻtkazildi.

Natijalar va ularning tahlili. Oʻrganilgan tajriba natijalariga koʻra nazorat (oʻgʻitsiz) variantimizda Xazrati Bashir va Yaksart navlarining boshqoq uzunligi 8,6 sm va 7,9 sm ni, bitta boshqodagi don soni 39 dona va 34 donani, 1000 ta don vazni Xazrati Bashir navida 40 gramm va Yaksart navida 36 grammi, don naturasi 770 gr/l va 751 gr/l ni tashkil etdi.

Maʼdanli ozuqalardan N₁₂₀:P₉₀:K₆₀ qoʻllanilgan variantimizda Xazrati Bashir va Yaksart navlarimizning boshqoq uzunligi 9 sm va 8,5 sm, bitta boshqodagi don soni 43,1 dona va 37,8 donani, 1000 ta don vazni muvofiq holda 42 gramm va 38 grammi, don naturasi 782 gr/l va 772 gr/l ni tashkil etdi. N₁₂₀:P₉₀:K₆₀ +Avalon variantimizda bu koʻrsatkichlarimiz birmucha yuqori boʻlishi kuzatildi va N₁₂₀:P₉₀:K₆₀ qoʻllanilgan variantga nisbatan boshqoq uzunligi Xazrati Bashir navida 0,6 sm, Yaksart navida 0,4 sm ga yuqori boʻldi. Bitta boshqodagi don soni 13,3 donaga, Yaksart navida 10,6 donaga yuqori boʻldi. 1000 ta don vazni muvofiq holda 2 gramm va 3 gramga, don naturasi 12 g/l va 8 gr/l qoʻshimcha koʻrsatkichlar oshishiga erishildi. Avalon preparati bilan ishlash navlarimizning boshqoq uzunligi, bitta boshqodagi don soni, 1000 ta don vazni, don naturasi kabi koʻrsatkichlarini oshirish imkoniyatini yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. Аманов.А., Нурбеков. А.И., Халикулов. З “Засухоустойчивост коллекционных образцов пшеницы Узбекистане”. Вестник № 1. Региональной сети по внедрению сортов пшеницы и семеноводству. Алматы 2002. б-12;
- . Захаров П. И., Беленков А.М., Кейс В. А., Журкевич О.А., “Влияние основных обработок южных почв на урожайность зерновых и отдельные факторы плодородия”. Зерновое хозяйство-Москва, 2005, № 5. Str-31-33.;
3. Yusupov X., Muratkosimov A., Nishonov J., “Lalmikor maydonlarda kuzgi bug`doyni barg orqali oziqlantirish”. Agro Ilm. 2018. № 4. bet-23-24.;

4. G`aybullayev G`. S. Toshkentboyeva F.I. Nurkabolov Sh. “Mikro va makro o`g`itlarning kuzgi bug`doy hosildorligi va don sifat ko`rsatkichlariga ta`siri”. O`zbekiston qishloq va suv xo`jaligi. 2021. Maxsus son. Bet-6-7.
5. Siddiqov R. Ekin parvarishi. O`zbekiston qishloq xo`jaligi jurnali. Toshkent. 2007. № 2. bet-18
6. Xalilov N. X., Bobomirzayev P.X., Daminov S Kuzgi bug`doy yetishtirish. O`zbekiston qishloq xo`jaligi jurnali. Toshkent. 1998. № 5-6. bet-35-38.
7. Internet materiallari: www.Agronomy.uz; www.dexqon.uz